

SAMARQAND VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



Korxonalar va tashkilotlar (fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari) (2019-yil 1-mart holatiga)

2019-yilning yanvar-fevral oylarida viloyatda 2390 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1640 taga ko'pdir.

Natijada, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 5646 ta (26,2 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 27230 tani tashkil etgan.



Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiriq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.




28537 tani
tashkil etdi

2019-yil 1-mart holatiga

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar soni, birlikda




24,3%

O'tgan yilning shu
davriga nisbatan
o'sish sur'ati

2019-yilning 1-mart holatiga 28537 ta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 24,3 foizga o'sgan, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jamiga nisbatan 24,0 % savdo, 18,9 % sanoat, 8,7 % qurilish, 7,6 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 6,8 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 3,1 % tashish va saqlash, 2,1 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar, 1,6 % axborot va aloqa hamda 27,1 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha (6863 ta) savdo, (5384 ta) sanoat, (2486 ta) qurilish, (2162 ta) qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, (1950 ta) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, (894 ta) tashish va saqlash, (595) sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar, (468 ta) axborot va aloqa hamda (7735 ta) boshqa faoliyat turlariga to'g'ri kelmoqda.


Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni **27230** tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 5646 ta (26,2 %) ga o'sgan.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ulushi, foizda (dehqon va fermer xo'jaliklaridan tashqari)




Savdo




Sanoat




Qurilish




Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi




Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar




Tashish va saqlash



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish




Axborot va aloqa



Boshqa turlar

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda

(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)



Hududlar kesimida, faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Samarqand shahri (8562 ta), Urgut tumani (2424 ta), Pastdarg'om tumani (2148 ta), Samarqand tumani (1858 ta) va Payariq tumani (1475 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Qo'shrabot (617 ta), Paxtachi (687 ta) hamda Nurobod (729 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.



Yangi tashkil etilgan


(dehqon va fermer xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yilning yanvar-fevral oylarida 2390 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2018 yilning shu davriga nisbatan 1640 taga ko'pdir.



Yangi tashkil etilgan korxonalarining o'sish surati

2017-yilning yanvar-fevral oyiga nisbatan 100 taga kamaygan




2018-yilning yanvar-fevral oyiga nisbatan 1640 taga o'sgan




Yangi tashkil etilgan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko'pi savdo (1025 ta), sanoat (529 ta), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (265 ta), sohalarida hamda iqtisodiy faoliyatning boshqa turlarida (190 ta) yangi tashkil etilgan. Eng kam esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (21 ta), axborot va aloqa (30 ta) hamda tashish va saqlash (44 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda



(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi Samarqand shahri (797 ta), Samarqand (230 ta), Ishtixon (187 ta) va Pastdarg'om (162 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Kattaqo'rg'on shahri (48 ta), Narpay (50 ta) hamda Qo'shrabot (53 ta) tumanlarida korxonalar va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.




Tijorat korxonalari

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


2019-yilning 1-mart holatiga

Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar soni 23385 tani tashkil qildi.

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni, birlikda



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar



418 ta



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalar soni.

44,6 % o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sgan.


Asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Turkiya Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi va Koreya Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi

2019-yil 1-mart holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 418 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 129 taga yoki 44,6 % ga o'sgan. Ushbu korxonalarning asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Turkiya Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi va Koreya Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.


Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni, birlikda



Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarni yillar kesimida soni, birlikda



Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining 305 tasi qo'shma, 113 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.





418

Qo'shma korxonalar


Xorijiy korxonalar

113


305




Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni, birlikda



Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining asosiy qismi Samarqand shahrida 217 ta, (jamidagi ulushi 51,9 %), Urgut tumanida 40 ta (9,6 %) va Jomboy 36 tani (8,6 %) tashkil etgan. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Qo'shrabot 2 ta (0,5 %), Narpay 5 ta (1,2 %), Paxtachi 5 ta (1,2 %) hamda Ishtixon 6 tani (1,4 %) tashkil etgan.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, birlikda



Ko'rinib turibdiki faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulush esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda tashish va saqlash faoliyat turlariga to'g'ri keladi.




Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar



1 Yangi tashkil etilgan

2019-yilning yanvar-fevral oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarining soni 26 tani tashkil qilgan.

Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 15 taga ko'paygan.



Rossiya Federatsiyasi rezidentlari kapitali ishtirokida – 4 ta, Turkiya Respublikasi – 6 ta, Xitoy Xalq Respublikasi – 3 ta, Afg'oniston 2 ta, Janubiy Koriya Respublikasi 2 ta, Yaponiya 1 ta va Qozog'iston Respublikasi 1 ta korxonalar yangi ro'yxatdan o'tgan.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda

2019-yilning yanvar-fevral oylarida		
	Jami	umumiy soniga nisbatan, %
Sanoat	12	46,1
Qurilish	1	3,8
Tashish va saqlash	1	3,8
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	2	7,7
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	3	11,5
Savdo	3	11,5
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	2	7,8
boshqa soxalar	2	7,8

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan 12 tasi sanoat, 1 tasi qurilish, 1 tasi tashish va saqlash, 2 yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 3 qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 3 savdo, 2 sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 2 boshqa soxalar faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar



(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yilning 1-mart holatiga



21725 ta faoliyat ko'rsatmoqda

2019-yilning 1-mart holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 21725 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 31,2 % ga oshgan.





2289 ta yangi tashkil etildi

2019-yilning yanvar-fevral oylarida 2289 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan solishtirilganda 1584 taga ko'proqdir.




•Kichik tadbirkorlik
sub'ektlarining eng katta
ulushi

•Kichik tadbirkorlik
sub'ektlarining eng kichik
ulushi



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 21725 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 6498 tasi (29,9 %) – savdo, 5104 tasi (23,5 %) - sanoat, 2344 tasi (10,8 %) - qurilish, 1972 tasi (9,1 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1858 tasi (8,5 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi, 834 tasi (3,8 %) - tashish va saqlash, 474 tasi (2,2 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 426 tasi (2,0 %) - axborot va aloqa sohasi, shuningdek 2215 tasi (10,2 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi



Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi



Savdo

44,6 %



Sanoat

23,1 %



Qurilish

7,2 %



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

11,6 %



Tashish va saqlash

1,9 %



Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi

5,2 %



Axborot va aloqa

0,5 %



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

0,9 %




Boshqa turlar

4,1 %





Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda 1022 ta, sanoatda 529 ta, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 265 ta va qurilishda 165 ta tashkil etilgan. Eng kam esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatishda 21 ta, axborot va aloqada 30 ta hamda tashish va saqlashda 44 ta tashkil etilgan.

Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni, birlikda



Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Samarqand shahri (779 ta), Samarqand (223 ta), Ishtixon (180 ta) va Pastdarg'om (156 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Narpay (47 ta), Kattaqo'rg'on shahar (48 ta) hamda Nurobod (48 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Ro'yxatdan o'tgan




Faoliyat ko'rsatayotgan



Yangi tashkil etilgan

Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 32,8 % yoki 994 tasi sanoat, 28,2 % yoki 855 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 21,0 % yoki 638 tasi savdo, 8,5 % yoki 257 tasi qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi, 1,0 % yoki 32 tasi qurilish, 0,3 % yoki 10 tasi sog`liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko`rsatish, 1,2 % yoki 38 tasi axborot va aloqa, 0,8 % yoki 25 tasi tashish va saqlash hamda 6,2 % yoki 185 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to`g`ri kelmoqda.

**Samarqand viloyati
statistika boshqarmasi
Statistik registrlarni
yuritish bo'limi.**

Tel.:71-230-85-42(43)